

**YURIDIK VA YURIDIK MAQOMGA EGA BO'LMAGAN TADBIRKOR
ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR TA'MINOTI
SHARTNOMASI**

2022yil "14" ayap

176/1-son

Farg'ona tuman

Nizom asosida faoliyat yurituvchi Farg'ona tuman elektr ta'minoti korxonasi rahbari Xomidjonov Shavkatjon Sobirjonovich (keyingi o'rnlarda "Korxona" deb ataladi) bir tomondan hamda Nizom yurituvchi Fargona tumani Obodonlashtirish boshqarmasi rahbari Q.Bobojonov (keyingi o'rnlarda "Iste'molchi" deb ataladi),
(iste'molchi rahbarining F.I.O.)

hisob raqami –

| | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|
| | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|

 kinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

Ushbu elektr ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rnlarda - SHartnoma deb ataladi) muvofiq, Korxona Iste'molchiga elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali etkazib berish va Iste'molchi iste'mol qilingan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

II. ETKAZIB BERILGAN ENERGIYANI XISOBGA OLİSH

2.1. Energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi:

Aktiv 3333 kVt.s. reaktiv _____ kVar.s

2.2. Etkazib beriladigan energiyaning SHartnoma tuzilgan kunidagi umumiy narxi 1499850 so'mni, tarif bo'yicha 450 so'm 1kb uchun tashkil etadi.

tarif turi: tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki axoilga tenglashtirilgan, (keraklisi yozilsin)

2.3. Iste'molchiga etkazib beriladigan energiyaning oylar kesimidagi yillik xajmi ushbu SHartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

2.4. Iste'molchi tomonidan olingan energiyaning haq to'lanadigan haqiqiy miqdori ushbu SHartnomaga 2-ilovada nazarda tutilgan xisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

2.5. Iste'molchilarning (maishiy iste'molchilardan tashqari) elektr energiyasini xisobga olish asbobolari, shuningdek elektr energiyasini xisobga olishning boshqa vositalari iste'molchining mablag'lari xisobiga sotib olinadi, davlat qiyoslovidan o'tkaziladi, xududiy elektr tarmoqlarikorxonalarini tomonidan Byuro bilan xamkorlikda bepul o'rnatiladi, plombalanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Energiya uchun hisob-kitoblar tabaqalashtirilgan bir stavkali yoki axoliga tenglashtirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan Iste'molchi (**byudjet tashkilotlari, suv ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stansiyalari bundan mustasno**) elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni sutka vaqtlarining tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan energiya uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblar:

yarim tig'iz payt – sutkaning yorug' vaqtida (soat 9⁰⁰ dan 17⁰⁰ gacha) – belgilangan tarif bo'yicha, tig'iz payt – eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 6⁰⁰ dan 9⁰⁰ gacha, kechki eng katta miqdor soat

17⁰⁰ dan 22⁰⁰ gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koeffitsientni ko'llash orqali;

tungi payt – sutkaning qorong'i vaqtida (eng kam yuklamali soatlarda: 22⁰⁰ dan 24⁰⁰ gacha va 00⁰⁰ dan 6⁰⁰ gacha) – belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar kamayuvchi koeffitsientni ko'llash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II-tarif guruhi bir stavkali iste'molchilarga qo'llaniladigan tarifga tug'ri keladi.

Tabaqlashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan Iste'molchiga nisbatan energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Ulangan quvvati 750 kVA gacha bo'lган, elektr energiyasini realizatsiya qilishda narxni shakllantirishning alohida tartibi belgilanadigan tashkilotlar ro'yxatiga kiritilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi va ayrim xizmatlar ko'rsatuvchi Iste'molchilar uchun to'lovlar Hukumat qarori bilan belgilanadigan tariflar bo'yicha amalga oshiradi.

3.3. Bir necha tarif guruhlari mansub iste'molchi bilan hisob-kitoblar, har bir tarif guruhiga alohida o'rnatilgan hisobga olish asboblari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi

Iste'molchi tomonidan alovida xisobga olish priborlari o'rnatish rad qilingan taqdirda, elektr energiyasi uchun to'lovlar foydalanilayotgan eng yuqori tarif guruxi bo'yicha xisob kitob qilinadi.

Ushbu SHartno ma bo'yicha Iste'molchi va Korxonalar orasidagi hisob-kitob davri bir oy hisoblanadi.

3.4. Iste'molchi hisob-kitob davri tugagandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining (keyingi o'rinnlarda "Byuro" deb ataladi) vakolatli vakili bilan birgalikda hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini har oyda yozib oladi va ushbu SHartnomaning 5-ilovasiga muvofiq shaklda energiya sarfi bo'yicha hisobot tuzadi.

Iste'molchi Korxonaga energianing sarflanishi to'g'risidagi hisobotni o'z qo'li bilan, faksimil, elektron yoki pochta aloqasi orqali har oyning "___" sanasigacha xududiy elektr tarmoqlari korxonasiga taqdim etadi.

Bunda, ulangan quvvati 750 kVA va undan yuqori bo'lган to'lovlarни tabaqlashtirilgan tarifda amalga oshiradigan Iste'molchilar bo'yicha energiya sarfi bo'yicha hisobotda ishlataligan elektr energiya (aktiv va reaktiv) to'liq hajmidan tashqari tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlarda foydalanilgan energiya hajmlari alovida ham ko'rsatilishi shart.

3.5. Elektr energiyasi uchun amaldagi tariflar o'zgargan taqdirda, xududiy elektr tarmoqlari korxonasi ularning kuchga kirishidan kamida 15 kun oldin qarorni ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Bunda elektr energiyasi uchun tariflar o'zgargan sanadan qatiy nazar, elektr ta'minoti shartnomasi o'z kuchida qoladi va iste'molchi foydalanilgan elektr energiyasi uchun yangi tarif kuchga kirgan kundan boshlab xaq to'lashga majburdir

Tarif o'zgargan taqdirda, iste'molchilar elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya)ning avans tariqasida to'langanxajmi uchun to'lov kunidan boshlab keyingi bir oydan ortiq bo'limgan muddatda qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod etiladi.

Arifmetik xatoliklar, tariflarni noto'g'ri qo'llash tufayli paydo bo'ladigan kam va ortiqcha to'lovlar tegishli tarif bo'yicha kVt/soatlarda qayta hisoblab chiqiladi va hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan da'vo muddati doirasida ko'rsatkichlardagi tafovut yoki qo'shimchalar bilan birgalikda hisobga olinadi".

3.6. Iste'molchiga energiyani etkazib berish kelgusi hisob-kitob davri boshlanishidan oldin energianing shartnomaviy miqdori qiymati uchun oldindan yuz foizlik (100%) haq to'lash asosida amalga oshiriladi. Bunda, hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini

hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib, hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin bildirgi tartibida Byuroga murojaat qilganlari taqdirda 50 foiz oldindan haq to'lash asosida etkazib berilishiga yo'l qo'yiladi. Oldindan haq to'lanmagan hamda 50 foiz oldindan haq to'layotgan iste'molchilar tomonidan oyning oxirigacha yakuniy hisob-kitob amalga oshirilmagan hollarda mazkur iste'molchiga nisbatan elektr tarmoqlaridan to'liq uzishgacha bo'lgan choralar ko'rildi.

3.7. Korxona iste'molchining energiya sarfi to'g'risidagi hisoboti asosida belgilangan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi va besh kun ichida to'lov amalga oshirish uchun hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini taqdim etadi.

Iste'molchi turli tarif guruhlariga tegishli bo'lgan bir nechta ob'ektga ega bo'lsa, har bir tarif guruhi uchun tarif ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura taqdim etadiladi

Korxona tomonidan maxsus dasturiy mahsulot orqali hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini shakllantiriladi hamda sotib oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, operator orqali rouming operatoriga yuboriladi.

(ASOS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 25.06.2019 yildagi 522-sonli "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori)

3.8. Hisobga olish pribori ushbu SHartnomaga 3-ilovaga muvofiq, elektr tarmoqlarining mansublik balansi bo'yicha farqlash dalolatnomasi va tomonlarning ekspluatatsiya javobgarligi asosida aniqlanadigan elektr tarmog'inining mansublik balansi chegarasida o'rnatilmaganda, chegaradan hisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lgan uchastkada energiyaning texnologik sarflanish hajmi Iste'molchi bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi va ushbu shartnomaga 4-ilovaga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi

Bunda, 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan, tabaqalashtirilgan tarifda to'lovlarini amalga oshiradigan Iste'molchi uchun energiyaning texnologik sarflanish hajmi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib, mutanosib ravishda jami olingan elektr hajmining tegishli paytlariga to'lov haqini yozish uchun qo'shib boriladi. **(6-,7-ilovalarni reaktiv quvvatga ega va texnologik bronli iste'molchilar to'ldiradi)**

3.9 Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo'yicha iste'molchining elektr tarmog'i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasing elektr tarmog'iga uzatilganda, iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste'molchining elektr tarmog'iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasing elektr tarmog'iga iste'molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

3.10. Iste'molchi energiyaning sarflanishi to'g'risidagi hisobotni SHartnomada ko'rsatilgan muddatda taqdim etmagan taqdirda, Korxona energiya iste'molining shartnomada qayd etilgan miqdori bo'yicha yoki o'tgan davr uchun haqiqatdan iste'mol qilingan elektr energiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida to'lov hisob-varag'ini yozadi va Iste'molchining shaxsiy hisob raqamida bu haqida tegishli belgi qo'yiladi.

Byuro hisoblash priboridan ko'rsatkichlarni nazorat tartibida yozib olgandan keyin, Korxona amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitobni belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.11. Byuro iste'molchilar bilan birgalikda iste'mol qilingan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini xisobga olish asboblari (maishiy iste'molchilardan tashqari) ko'rsatkichlarini xar oyda yozib olishi va zarur bo'lganda elektr energiyasini xisobga olish asboblarini ulash sxemasini tekshirib ko'rishi kerak. Iste'molchi tomonidan

elektr energiyasi sarfi to‘g‘risida xududiy elektr tarmoqlari korxonasi va Byuroga belgilangan shakl bo‘yicha o‘z qo‘li bilan, faksimil.elektron yoki pochta aloqasi orqali taqdim etilgan xisobot yuridik shaxslar xamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun iste’mol qilingan elektr energiyasining amaldagi xajmini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

EHNATning joriy etilishi munosabati bilan iste’molchilarning xisobga olish asboblaridagi ko‘rsatkichlar avtomatlashtirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki iste’molchining buyurtmasi bo‘yicha yozib olinadi.

Xududiy elektr tarmoqlari korxonalari iste’molchilarning shaxsiy xisob-raqam va xisobga olish asboblarining xolati xaqida batafsil ma‘lumotlar doimiy asosda shakllantirilishi va idoralararo elektron xamkorlik qilish tizimiga real vaqt rejimida yuborilishini ta’minlaydi.

3.12. SHartnomada hisob-kitob davri uchun ko‘rsatilgan energiya miqdordan 5 foizdan ortiq miqdorda energiya iste’mol qilganda, Iste’molchidan SHartnomada ko‘rsatilgan miqdordan ortiq iste’mol qilingan energiyasi ja’mi hajmi uchun belgilangan tarifning 1,15 baravari miqdorida to‘lov undiriladi.

Iste’molchining energiya haqini to‘lash, reaktiv energiya kompensatsiyasi tarifga ustamalar, shuningdek hisobga olinmagan energiyani, (noqonuniy foydalanilgan elektr energiyasi) qayta hisob-kitobi va penya bo‘yicha qarzi bo‘lgan taqdirda, uning avans to‘lovi hisobiga o‘tkazilgan mablag‘lari qarzni qoplashga yo‘naltiriladi va avans to‘lovi (oldindan haq to‘lash) sifatida hisobga olinmaydi.

Iste’molchi tomonidan SHartnomada ko‘rsatilgan elektr energiyasi xajmini to‘liq iste’mol qilmagan taqdirda, avans tariqasida to‘langan mablag‘lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarzdorlik to‘lov muddati o‘tgan deb hisoblanadi va to‘lov muddati o‘tgan har bir kun uchun iste’molchiga to‘lov muddati o‘tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda etkazib beriladigan korxonalar uchun esa 0,2 foiz miqdorida penya hisoblab yoziladi. Bunda penyaning umumiyligi miqdori, muddati o‘tgan to‘lovning 50 foizidan oshmasligi lozim. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 1 noyabrdagi 511-sonli qaroriga asosan)

3.13. Iste’molchi va Korxona har oyda, hisob-kitob davri tamom bo‘lgandan keyin besh kun mobaynida o‘zaro hisob-kitoblarning taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

Agar “iste’molchi” solishtirma dalolatnomasini imzolashdan bosh tortsa, Energiya ta’minoti korxonasi karzni undirish uchun shartnomaviy xajmdan kelib chikkan xolda Iste’molchining bankdagi xisob rakamiga tulov talabnomasi kuyish yuli bilan, xamda bir tomonlama rasmiylashtirilgan solishtirma dalolatnomasi asosida “Byuro” tomonidan majburiy unduruvga karatishga,shuningdek sud (sudlarga) va davlat solik xizmati organlariga takdim etishga xakli.

3.14. Iste’molchini quyidagi hollarda elektr tarmoqlaridan uziladi:

shartnomaviy majburiyatlarini bajarilmaganda;

hisob-kitoblar o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan energiya uchun qarzdorlik mavjud bo‘lganda;

Byuro talabnomalari bajarilmaganda, shu jumladan, uning tegishli vakillariga hisobga olish priborlari ko‘rsatkichlarini olishga yo‘l qo‘yilmaganda;

hisobga olish priborlarini qasddan buzganda, ko‘rsatkichlarni o‘zgartirish maqsadida ularning ishlashiga tashqaridan aralashish hatti-harakatlar amalga oshirilganda;

elektr energiyasidan o‘g‘irlilik tarzda foydalanilgani, elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-taroj qilish yoki Elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzishning boshqa holatlari aniqlanganda;

shartnoma, elektr ta’minoti loyixasi va texnik shartlar mavjud bulmaganda;

elektr ta’minot loyixasi va texnik shartlarga mos kelmaganda.

3.15. Hisobga olinmagan energiya uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitob, Iste'molchini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Byuro va elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan iste'molchining haqiqatdagagi qarzdorliklari mavjud yoki mavjud emasligiga aniqlik kiritilgan holda elektr tarmoqlaridan ajratiladi

3.16. Iste'molchi tomonidan qoidabuzarlik holati bartaraf etilib, mavjud qarzdorlik va to'lov paytidagi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida to'lov undirilgandan so'ng tarmoqga qayta ulanadi (EHNATga ulangan iste'molchilar bundan mustasno).

3.17. Iste'molchi elektr tarmoqlarining texnik xolatini ta'minlash bo'yicha ekspluatatsiya xarajatlari uchun subiste'molchilar, iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida tuzilgan aloxida shartnoma bo'yicha elektr energiyasining umumiy xajmidan olinadigan ulushga mutanosib ravishda xaq to'laydi.

Ekspluatatsiya xarajatlarini subiste'molchiga beriladigan elektr energiyasi tarifiga qo'shishga ruxsat etilmaydi.

3.18. Iste'molchi elektr tarmoqlarining texnik xolatini ta'minlash bo'yicha ekspluatatsiya xarajatlari uchun subiste'molchilar, iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida tuzilgan aloxida shartnoma bo'yicha elektr energiyasining umumiy xajmidan olinadigan ulushga mutanosib ravishda xaq to'laydi.

Ekspluatatsiya xarajatlarini subiste'molchiga beriladigan elektr energiyasi tarifiga qo'shishga ruxsat etilmaydi.

3.19. Iste'molchi tomonidan iste'mol qilingan energiyasi uchun to'lov tariflari quyidagi xolarda axoli uchun belgilangan tariflarga tenglashtiriladi;

O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida" gi O'RQ 327-son Qonunning 28-moddasiga asosan;

Oilaviy korxona turar joydan bir vaqtning o'zida unda istiqomat qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, kommunal infratuzilma xizmatlari (elektr energiyasi, suv ta'minoti, kanalizatsiya, gaz ta'minoti va issiqlik ta'minoti) haqini to'lash aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha va shartlar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 10 sentyabrdagi 525-f-sonli Farmoyishiga asosan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatni yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida» 2003 yil 22 avgustdagagi 364-son qarorining 3-bandini bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududidagi diniy tashkilotlar 2003 yilning

1 sentyabridan boshlab ularga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar (tabiiy gaz, ichimlik suvi, issiqlik energiyasi, elektr energiyasi, telefon, oqova suv va maishiy chiqindilarni tashish)ga to'lovlarni aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha to'laydilar.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

Iste'molchining elektr qurilmalarini Korxona elektr tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq o'rnatilgan tartibda ulash;

sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda elektr energiyasini olish;

elektr energiyasi etkazib berishning to'xtalishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

Korxonaga iste'mol qiladigan energiya hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda energianing SHartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan oldin 10 kundan kechikmay (joriy oy tugagungacha) berilishi va surayotgan kushimcha mikdor uchun 100% oldindan tulov amalga oshirilgan bulishi lozim;

elektr energiyasi to‘liq hajmda etkazib berilmasligi yoki sifat ko‘rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo‘lmagan elektr energiya etkazib berilishi oqibatida etkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplatish;

SHartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

SHartnoma bekor qilganda foydalanilmagan energiya miqdori uchun to‘langan mablag‘ni qaytarilishini talab qilish;

energiya etkazib berilishi to‘xtatilganda etkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

elektr ta‘minoti SHartnomasini tuzishda va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga, monopoliyaga qarshi davlat organiga yoki bo‘ysunuvi bo‘yicha yuqori organga (mansabdar shaxsga) murojaat qilish.

Iste’molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

4.2. Iste’molchi quyidagilarga majbur:

belgilangan energiya iste’moli rejimiga rioya etish;

foydalanilgan energiya uchun o‘z vaqtida haq to‘lash;

ekspluatatsiya qilayotgan elektr tarmoqlari, priborlar, elektr qurilmalarni zarur texnik holatini saqlash, shuningdek, elektr qurilmalarni ekspluatatsiya qilishda havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishini ta‘minlash, Korxonaga elektr uskunalarining nosozligi to‘g‘risida xabar berish;

elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

egallab turgan binosidan uni berish, sozish, ijaraga rasmiylashtirish yoki boshka sabablarga kura kuchib ketgan takdirda, bu xakda elektr ta‘minoti korxonasini yozma ravishda xabardor kilish;

EEXNAT (AISKUE) tizimini barkaror doimiy ishlab turishini ta‘minlash;

energetika tizimining «Elektroxisob» kompyuter dasturiga iste’molchining biriktirilgan telefon rakamiga (boglanish nuktasiga) «SMS» orkali yuborilgan xabarnoma, ogoxlantirish xatlariga uz vaktida munosabatlarini bildirish va zarur xolda darxol energota’mnot korxonasiga aniklik kiritish maksadida ma’lum kilish;

energetika tizimining «Elektroxisob» kompyuter dasturiga iste’molchining biriktirilgan telefon rakami (boglanish nuktasi)ga shuningdek boshka biron rekvizitlari uzgargan xolda xolda iste’molchi darxol elektr ta‘minoti korxonasiga xabar berishi;

Byuro va “O‘zenergoinspeksiya” qonuniy ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajarish;

Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalari talablarini bajarish;

Byuro va/yoki Korxona vakilining hisobga olish priborlarini ko‘zdan kechirishiga belgilangan tartibda ruxsat berish;

yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin energiyaning zarur miqdori uchun Korxonaga buyurtmanoma berish;

kelgusi yil uchun energiyaga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashda energiyani elektr tarmoqlaridan uzatishda, ishlab chiqariladigan maxsulotning (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma’muriy binolarni yoritish, isitish, shamollatish uchun elektr energiya sarfini, shuningdek, ushbu elektr tarmoqlariga ulangan subiste’molchilarning ehtiyojini hisobga olish.

SHuningdek, 5 MVt va undan yuqori bo‘lgan quvvatga ulangan Iste’molchi, Korxona talabiga asosan aniklash va xabar berishga majbur:

iste’mol qilinayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori,

energetika tizimining eng ko‘p va eng kam yuklamalni davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi,

energetika tizimining eng ko‘p yuklamasining o‘tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfini.

Iste’molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Ulangan quvvati 250 kVA va undan ortiq bo‘lgan iste’molchilar mazkur Qoidalarning 127-bandida ko‘rsatilgan majburiyatlar bilan birgalikda quyidagilarga majbur:

mahsulot birligini ishlab chiqarish (ishlarni amalga oshirish) uchun elektr energiyasi sarfining texnik va iqtisodiy jihatdan asoslangan ilg‘or normalarini ishlab chiqish — umumiy ishlab chiqarish va texnologik; yakka tartibdagi va guruh bo‘yicha; yillik, choraklik va oylik — ularni ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashtirilishi (o‘zgartirilishi) va yangi texnika joriy etilishiga qarab qayta ko‘rib chiqish;

korxona bo‘yicha, shu jumladan ko‘p energiya sarflaydigan uskunalar, sexlar va iste’molchilar guruhlari bo‘yicha elektr energiyasi balanslarini tuzish hamda ular asosida ishlab chiqarish jarayonlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, elektr energiyasining samarasiz sarflanishi va isrof bo‘lishini aniqlash, ularni kamaytirish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

kelgusi davr uchun elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojni va elektr tarmoqlarining energiya o‘tkazish qobiliyatini oshirish, elektr ta’minoti sxemalarini takomillashtirish zaruriyatini aniqlash maqsadida (mahsulot ishlab chiqarishning, bajariladigan ish turlarining mo‘ljallanayotgan prognoz hajmlaridan va elektr energiyasi sarfi me’yorlaridan kelib chiqib, ularni kamaytirish va elektr energiyasini tejashni hisobga olgan holda) elektr energiyasining bir yil va kelgusi davr uchun balanslarini tuzish;

mahsulot (ishlar) birligiga elektr energiyasi sarfining tasdiqlangan me’yorlariga rioya qilish va ularni kamaytirish bo‘yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta’minlash;

elektr energiyasini tejash bo‘yicha (yillik va uzoq istiqbol uchun) tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

4.3. Korxona quyidagi huquqlarga ega:

Iste’molchidan SHartnomada belgilangan o‘z majburiyatlarini ko‘rsatgan darajasida bajarishini talab etish;

ushbu shartnoma shartlari bajarilmaganda yoki buzilganda Iste’molchi tomonidan etkazilgan amaldagi zararni belgilangan tartibda qoplatish;

avaruya rejimida, Byuroni xabardor kilib Iste’molchini elektr tarmog‘idan uzib ko‘yish;

elektr xujaligi ob’ektlarida avariaviy xolatlarni oldini olish yoki ularni bartaraf etish buyicha kechiktirib bulmaydigan choralar kurish zarur bulganda iste’molchini ogoxlantirmay va u bilan kelishmay unga energiya etkazib berishni cheklash;

Byuroning ko‘rsatmasiga asosan, hamda EHNATga ulangan yoki energiyaga oldindan haq to‘lash qurilmasiga ega hisobga olish pribori bo‘lgan iste’molchini oldindan to‘langan haq tugaganda elektr tarmoqlaridan uzish.

Korxona qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Mazkur SHartnomaga asosan Iste’molchini elektr tarmoqlaridan uzilgandan keyin yuzaga kelgan xolat uchun Korxona va Byuro javobgar bo‘lmaydi.

4.4. Korxona quyidagilarga majbur:

Iste’molchiga energiyani elektr tarmog‘i orqali elektr tarmoqlarining balans bo‘yicha mansublik bo‘linish chegarasigacha SHartnomada ko‘rsatilgan xajmda muntazam etkazib berish;

uskunalar, elektr uzatish liniyalarini, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash, shuningdek, o‘z elektr xo‘jaligi ob’ektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr ho‘jaligi ob’ektlarini ta’mirlash bilan bog‘liq elektr ta’minotidagi kutilayotgan uzilishlar to‘g‘risida uch kundan kechikmasdan ogohlantirish;

Iste’molchini elektr energiyasini etkazib berilishi to‘xtatilishi va to‘xtatilish sabablari to‘g‘risida xabardor qilish;

kiritilayotgan cheklashlar to‘g‘risida, chekashlarni xajmi va vaqtin ko‘rsatilgan xolda oldindan xabar berish;

elektr energiyasi to‘liq etkazib berilmaganligi yoki elektr ta‘minotidagi boshqa buzilishlar to‘g‘risidagi Iste‘molchining arizasini, ariza olingan kundan boshlab 15 kundan kechiktirmay ko‘rib chikish, bartaraf etish va batafsil javob yuborish;

Iste‘molchiga o‘rnatilgan tartibda etkazib berilgan energiya hisobini yuritish;

Iste‘molchining belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq, o‘n kun muddatda elektr energiyaning oylik shartnomaviy hajmiga o‘zgartirishlar kiritish, elektr energiyaning oylik shartnomaviy miqdorini ko‘paytirish (kamaytirish) mumkin bo‘lmagan taqdirda – iste‘molchiga bu haqda, rad etish sababini ko‘rsatgan holda xabar qilish;

Iste‘molchida o‘rnatilgan hisobga olish priborlarini almashtirish, o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatishni, shuningdek Byuro bilan birga plombalashni ta‘minlash;

sifat ko‘rsatkichlari davlat standartiga muvofiq bo‘lgan elektr energiyasini etkazib berish.

Korxona qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Elektr ta‘minoti shartnomasi bo‘yicha taraflar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi shuningdek, shartnomalar bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollarda, Korxona buning natijasida etkazilgan zararni qoplashga, “Iste‘molchi” esa etkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

5.2. Korxona Iste‘molchi oldida moddiy javobgar bo‘lmaydi agar:

Iste‘molchi elektr energiyasi iste‘molining belgilangan rejimiga rioya qilmay, elektr energiyasi iste‘moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo‘l qo‘yganda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan belgilangan elektr energiyasi chekash jadvali bajarmagani tufayli past sifatli elektr energiyasi etkazib berilganligi uchun;

zaxira manbai avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda chastotani sozlash bilan bog‘lik o‘chirishlar vaqtida elektr energiyasini etkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun iste‘molchi oldida moddiy javobgar bo‘lmaydi.

5.3. Korxona Iste‘molchini Byuro ko‘rsatmasiga asosan elektr energiyasidan uzilganda yoki engib bo‘lmaydigan kuch holatlari hamda favqulotda avariya xolatlari yuzaga kelganda (fors-major) Iste‘molchi oldida javobgar bo‘lmaydi.

Elektr energiya ta‘minoti korxonasi uzi bilan boglik bulmagan vaziyatlar okibatida mavjud bulgan chekashlar kiritilganda, “elektr kurilmalarini tuzilishi koidalari”ning 1.2.18, 1.2.19 va 1.2.20 bandalriga asosan iste‘molchilar tomonidan elektr ta‘minoti ishonchliligi toifasi (kategoriya)ga tugri kelmagan (loyixa talablari bajarilmaganda) xolda iste‘molchilarda kiritilgan da‘vo va talablari buyicha kelib chikadigan nizolar buyicha iste‘molchi oldida javobgar bulmaydi.

5.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o‘tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o‘tkazish orqali hal qilishning iloji bo‘lmaganda, ular qonunchilikda belgilangan tartibida hal qilinadi

VI. YAKUNIY QOIDALAR

6.1. Shartnomaga 2022 yil 31 dekabrgacha bo‘lgan muddatga tuziladi.

Shartnomaga kiritilgan o‘zgarishlar joriy oyda ko‘llanilmaydi va keyingi oydan kuchga kiradi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo‘yicha ariza bermagan bo‘lsa, shartnomaga keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi (Byudjet tashkilotlari bundan mustasno). Ariza ushbu SHartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.

кtron raqamli imzo orkali tasdiqlangan. Xujjat kod: ZM04586364
6.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanayotgan
ikki (Byudjet tashkilotlari uchun uch) nusxada tuzilgan. Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi
hisoblanadi.

6.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, ikkinchi tomonni
beker qilish muddatidan o'ttiz kun oldin habardor qilgan xolda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilishi sharti
bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabarnoma yozma ravishda yuboriladi.

6.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib,
tomonlarning vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy xisoblanadi.

6.5. Mazkur shartnoma talablarida nazarda tutilmagan tartib – qoidalar Vazirlar Maxkamasining 2018
yil 12 yanvarda 22 son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari xamda boshqa
amaldagi normativ – xuquqiy xujjatlar talablariga muvofiq tartibga solinadi.

II. TOMONLARNING MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

| | |
|--|---|
| «Etkazib beruvchi» | «Istemolchi» |
| Farg'ona tumani Elektr tarmoqlari korxonasi Farg'ona tumani Chimyon ko'cha 4-uy X.R 22636000200215289465 PSB bank Farg'ona MFO 00494 INN 200144930 Tel .Fax 353-13-62 Tashkilot raxbari _____ | Obodonlashtirish boshqarmasi Vodil qishlog'i Yaxshi niyat 8-uy Tel.Fax 73 353-01-28 Sh.x 100022860302337065200110001 STIR 205653341 OKONX 90211 Moliya vazirligi G'aznachiligi X.r 23402000300100001010 Toshkent shaxar Markaziy banki MFO 00014 Gaznachilik bulinmasi STIR 201122919 Tashkilot raxbari _____ |
| Sh.Xomidjonov | Q.Bobojonov |
| M.O' | Timzo |
| | |
| XUQUQSHUNOS | HULOSASI |
| | |

Elektr ta'minotining shartnomasiga 1 -
ilova

Etkazib beriladigan energiya hajmi

1. Tarif guruhi _____
2. Faoliyat turi _____
3. "Iste'molchi" elektr qurilmalarining ulangan quvvati: _____ kVA (kVt)
4. Texnik shart bo'yicha ruxsat berilgan quvvat _____ kVt
5. Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha toifasi (loyiha bo'yicha) _____
6. Hisob-kitob turi: _____

tarif turi: tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki axoliga tenglashtirilgan (kerakli yozilsin)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDAGI HUQUQIY
XULOSA**
№ZM04586364

1. Loyihaning turi: shartnoma

2. Loyihaning nomi: Elektr ta'minoti shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Farg`ona tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 10-yanvar kuni ishlab chiqilib, dasturga kiritilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti:**



A.Mirzayev

2022-yil 10-yanvar